

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar- iyun

E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 78,0 %ni tashkil etdi.
- 2,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 7,9 birlikni tashkil qildi.


2019 yilning yanvar-iyunida 2,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (36,6 %), sanoatda (23,6 %), qurilishda (13,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (9,0%), yashash va ovqatlanishda (7,3 %), tashish va saqlashda (2,7 %) tashkil etilgan.


2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo




Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish




Tashish va saqlash

2019 yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2018 y. | 2019 y. | (+-) |
|---|-----------------|---------|---------|-------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 11590 | 14106 | 2516 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 1584 | 2825 | 1241 |
| YalM | % | 81,3 | 78,0 | -3,3 |
| Sanoat | % | 45,7 | 49,5 | 3,8 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 99,6 | 99,0 | -0,6 |
| Investitsiya | % | 47,5 | 52,6 | 5,1 |
| Qurilish | % | 85,4 | 85,7 | 0,3 |
| Savdo | % | 92,4 | 90,8 | -1,6 |
| Xizmatlar | % | 74,5 | 71,7 | -2,8 |
| Yuk tashish | % | 78,5 | 77,5 | -1,0 |
| Yuk aylanmasi | % | 90,2 | 87,1 | -3,1 |
| Yo'lovchi tashish | % | 96,9 | 96,8 | 0,1 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 97,3 | 97,1 | 0,2 |
| Ekspart | % | 83,5 | 73,2 | -10,3 |
| Import | % | 95,2 | 79,9 | -15,3 |



2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari




Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

| | yanvar-iyun 2018 y. | yanvar-iyun 2019 y. |
|--------------------------------------|------------------------|------------------------|
| Surxondaryo viloyati bo'yicha | 1584 | 2825 |
| Termiz shahri | 255 | 536 |
| tumanlar: | | |
| Angor | 99 | 147 |
| Boysun | 70 | 112 |
| Denov | 223 | 390 |
| Jarqo'rg'on | 113 | 191 |
| Qumqo'rg'on | 120 | 185 |
| Qiziriq | 97 | 149 |
| Muzrabot | 76 | 108 |
| Oltinsoy | 37 | 101 |
| Sariosiyo | 77 | 116 |
| Termiz | 90 | 232 |
| Uzun | 61 | 162 |
| Sherobod | 79 | 163 |
| Sho'rchi | 187 | 233 |

2019 - yilning yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Termiz shahrida - 536 ta, Denov tumanida - 390 ta, Sho'rchi tumanida - 233 ta, Termiz tumanida - 232 ta, Jarqo'rg'on tumanida - 191 ta va Qumqo'rg'on tumanida - 185 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Sariosiyo tumani 116 ta, Muzrabot tumani 108 ta va Oltinsoy tumani 101 tani tashkil etgan.

2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Termiz sh.da - 19,0 %, Denov tumanida - 13,8 %, Sho'rchi tumanida - 8,2 %, Termiz tumanida - 8,2 %, Jarqo'rg'on tumanida - 6,8 %, Qumqo'rg'on tumanida 6,5 % va eng past ko'rsatkichni Oltinsoy tumani - 3,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

| | yanvar-iyun 2018 y. | yanvar-iyun 2019 y. |
|---|------------------------|------------------------|
| Jami | 1584 | 2825 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 247 | 255 |
| Sanoat | 260 | 668 |
| Qurilish | 205 | 373 |
| Savdo | 425 | 1033 |
| Tashish va saqlash | 54 | 76 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha | 119 | 205 |
| Axborot va aloqa | 11 | 33 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 45 | 33 |
| Boshqa turdagi xizmatlar | 218 | 149 |

Ma'lumot uchun: 2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda - 1033 ta, shuningdek :


sanoatda - 668 ta;

qurilishda - 373 ta;

xizmatda - 496 ta;


qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 255 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning 1 iyulida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Termiz shahrida 22,2 birlikda, Termiz tumanida 12,8 birlikda, Boysun tumanida 9,6 birlikda, Sherobod tumanida 8,2 birlikda, Angor tumanida 7,6 birlikda, Oltinsoy tumanida 7,4 birlikda, Qiziriq tumanida 7,0 birlikda, Muzrabot, Denov, Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Uzun, Sho'rchi tumanlarida o'rtacha ko'rsatkich 6,9 - 6,2 birlik oralig'ida aniqlandi. Qumqo'rg'on tumanida 5,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning 1 iyulida hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2018 yilning 1 iyulida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 9,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 7,9 birlikka tushdi va 2018 yilga nisbatan 1,1 birlikka kamaydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 49,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,0 %, qurilishda - 85,7 %, investitsiyada - 54,5 %, savdoda - 90,8 %, eksportda - 73,2 %, importda - 79,7 % va xizmatlar sohasida - 71,7 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**



Kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %

2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 78,0 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 81,3 %).

YalM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

2018 y.


81,3%

2019 y.

78,0%



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|-----------------------------|--------|----------|-----------|--------------|
| Surxondaryo viloyati | 49,5 | 85,7 | 71,7 | 52,6 |
| Termiz shahri | 38,1 | 97,7 | 44,2 | 35,5 |
| tumanlar: | | | | |
| Angor | 67,3 | 100,0 | 85,2 | 83,7 |
| Boysun | 100,0 | 100,0 | 97,9 | 37,4 |
| Denov | 55,8 | 100,0 | 94,4 | 71,0 |
| Jarqo`rgon | 34,5 | 99,2 | 91,1 | 55,3 |
| Qumqo`rgon | 65,1 | 72,5 | 97,3 | 66,5 |
| Qiziriq | 76,8 | 90,8 | 97,5 | 96,0 |
| Muzrabot | 70,9 | 100,0 | 98,2 | 50,9 |
| Oltinsoy | 100,0 | 100,0 | 98,5 | 60,0 |
| Sariosiyo | 63,5 | 33,6 | 92,8 | 28,6 |
| Termiz | 87,2 | 98,5 | 91,4 | 64,0 |
| Uzun | 97,7 | 100,0 | 97,1 | 86,3 |
| Sherobod | 30,2 | 81,2 | 95,3 | 42,7 |
| Sho`rchi | 38,5 | 100,0 | 97,3 | 89,4 |


Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Oltinsoy, Boysun (100,0 %) va Uzun (97,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Angor, Boysun, Denov, Muzrabot, Oltinsoy, Sho`rchi (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Oltinsoy (98,5 %), Muzrabot (98,2 %), Boysun (97,9 %), Uzun (97,1 %), Qiziriq (97,5 %) va Sho`rchi (97,3 %) tumanlari tashkil etadi.


Investitsiyada - Qiziriq (96,0 %), Sho`rchi (89,4 %) va Uzun (86,3 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyunida






Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



● Yanvar-iyun 2019 y.

2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Sho'rchi, Sariosiyo, Qumqo'rg'on va Oltinsoy tumanlarida - 100,0 %, eng past ko'rsatkichni Termiz shahar - 24,2 %ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahar (146,4 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (139,4 mlrd. so'm), Denov (126,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Muzrabot (20,7 mlrd. so'm) va Qiziriq (19,4 mlrd. so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





2019 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (100,0%), Boysun (100,0%), Uzun (97,7%), Termiz (87,2%), Qiziriq (76,8%), Muzrabot (70,9%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Jarqo'rg'on (34,5%) va Sherobod (30,2%) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (966,0 mlrd.so'm), Termiz shahri (745,2 mlrd.so'm), Sho'rchi (404,0 mlrd.so'm), Sherobod (261,0 mlrd.so'm) va Jarqo'rg'on (240,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (566,6 mlrd. so'm), Denov (132,4 mlrd so'm), Boysun (128,2 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (116,2 mlrd. so'm), Termiz (111,5 mlrd. so'm), Sariosiyo (107,2 mlrd. so'm), Angor (78,2 mlrd. so'm) hamda Sherobod (77,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



2019 yil yanvar- iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`sish sur`ati




Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Termiz shahri (630,4 mlrd. so'm), Denov (502,4 mlrd. so'm), Sariosiyo (114,1 mlrd. so'm), Sherobod (113,0 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (107,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil II - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 143 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 34 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 23,8 %), qurilish - 19 (13,3 %), savdo - 52 (36,3 %), xizmatlar sohasi - 24 (16,8 %), qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi - 14 (9,8 %) ni tashkil etdi.



2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining ulushi Termiz shahrida - 23,1 % (33 ta), Denov tumanida - 15,4 % (22 ta), Uzun tumanida - 9,8 % (14 ta), Sho'rchi tumanida - 9,1 % (13 ta), Jarqo'rg'on tumanida - 8,4 % (12 ta), Termiz tumanida - 7,0 % (10 ta), Boysun tumanida - 4,2 % (6 ta), Sherobod tumanida - 4,2 % (6 ta) ni tashkil qildi.


| Tarmoq | birlikda |
|------------------------------------|----------|
| sanoat | 34 |
| qurilish | 19 |
| savdo | 52 |
| Xizmatlar | 24 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 14 |

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 15,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 73,7 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 25,0 % va 65,4 %, xizmatlar sohasida – 29,2 % va 62,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 14,3 % va 78,6 %, sanoatda – 23,5 % va 67,7 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 8,8 %, qurilishda – 10,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 7,1 %, xizmatlarda – 8,3 % va savdoda – 9,6 % ni tashkil qildi.




Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %





Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 76,5 % - sanoat korxonalari, 76,9 % - savdo, 79,2 % - xizmatlar, 85,7 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 89,5 % - qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: A.Shoberdiyev

Tel.: (76) 223-07-19